

Jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish mavzusida davra suhbatlari o'tkazildi

Kuni kecha Toshkent shahridagi Turin Politexnika universiteti birinchi prorektori Alisher Ashurov rahbarligida universitet xodimlari, o'qituvchi-professorlari hamda talabalari ishtirokida talabalarning huquqiy bilimlarini oshirish, xuquqbuzarlik profilaktikasi va jinoyatni barvaqt oldini olish mavzularida davra suhbatlari o'tkazildi.



Yoshlar bilan o'tkazilgan tadbirda universitetning yoshlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i Allamova G.A., profilaktika katta inspektori, podpolkovnigi Yusupov Sh. va akademik guruhlar tyutori Sattiyev F.O'. ishtirok etdi. Suhbat davomida talabalarga – har qanday huquqbuzarliklar va jinoiy hatti-harakatlar sodir etganlik uchun yoshidan va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarning tegishli

moddalari bilan qonuniy javobgarlikka tortilishi haqida ma'lumotlar berib o'tildi. Tadbir yakunida talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollariga soha mutaxassisidan atroflicha javob oldilar.





